
Sektor rahbarlarining ommaviy qabulida aholini qiynayotgan masalalar o'rganildi

Bugun O'zbekiston tumani hokimligida sektor rahbarlarining navbatdagi ommaviy qabuli bo'lib o'tdi.

Aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish, ularni qiynab kelayotgan muammolarni aniqlash va hal etishga qaratilgan qabulda O'zbekiston Prezidentining tumandagi Xalq qabulxonasi mutasadilari, tuman hokimining o'rinnbosarlari, tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlari ham qatnashdilar.

Ommaviy qabul doirasida fuqarolarning communal soha, bank krediti, uy-joy bilan ta'minlash va mavjudini ta'mirlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kadastr, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, ishga joylashish, tibbiy xizmat, majburiy ijro harakatlari va boshqa masalalar bilan bog'liq murojaatlari o'rganib chiqildi.

Shu kuni 50 nafardan ziyod fuqarolarning turli masalalarda bildirilgan murojaatlar tinglanib, ularga ijobiy yechim topish bo'yicha zarur choralar belgilandi.

Murojaatlarning ayrimlari shu yerning o'zida ijobiy hal etilgan bo'lsa, ba'zi murojaatlar yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berildi.

Ijrosini o'rganish uchun qo'shimcha muddat talab qiladigan murojaatlar esa tegishli sohaviy xizmat mas'ullariga yo'naltirilib, alohida nazoratga olindi.

2025-01-31 16:40:56